

“Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyati
yagona aksiyadorining
15-son qarori

2023-yil 17-oktabr
soat 10:00

Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ tomonidan muomalaga chiqarilgan 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘qqiz yuz yigirma to‘rt ming uch yuz o‘n besh) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz ovoz beruvchi aksiyalari Jamiyat yagona aksiyadori – “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli bo‘lganligi sababli kvorum 100 foizni tashkil qiladi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasi hamda jamiyat ustaviga muvofiq yakka tartibda qabul qilindi va 2023-yilning 17-oktabr kuni yozma shaklda rasmiylashtirildi.

KUN TARTIBI:

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisi v.b. T. Zaripov bilan tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddatini uzaytirish.

Kun tartibidagi masala yuzasidan:

Jamiyat yagona aksiyadorining 2023-yil 17-oktabrdagi 10-son qaroriga asosan Zaripov To‘lqin Ergashevich 3 oylik sinov muddati bilan jamiyat boshqaruvi raisi vazifasini bajaruvchi etib tayinlangan hamda u bilan belgilangan tartibda mehnat shartnomasi 2023-yil 17-oktabrgacha tuzilgan.

Shuningdek, qarorning 5-bandida jamiyatning ijroiya organi rahbarligiga tanlov o‘tkazish tartibiga muvofiq jamiyat boshqaruvi raisi lavozimiga o‘rnatilgan tartibda tanlov e‘lon qilinishi hamda tanlov natijasi bo‘yicha nomzodlardan kelib tushgan takliflar kuzatuv kengashi tomonidan ko‘rib chiqilib, 2023-yil 17-oktabr kuniga qadar yagona aksiyadorga kiritilishini ta‘minlash belgilangan.

Topshiriq ijrosini ta‘minlash maqsadida jamiyat tomonidan “Korporativ axborot yagona portali”ga “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisi lavozimiga o‘rnatilgan tartibda tanlov e‘lon qilingan, ammo bugungi kunga qadar tanlov bo‘yicha nomzodlardan takliflar kelib tushmagan.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 59-moddasi hamda jamiyat ustavining 10.6-bandi “i” qismiga asosan jamiyat boshqaruvi raisi va a‘zolarini saylash (tayinlash, yollash) va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolati doirasiga kiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, jamiyat boshqaruvi raisi v.b. T. Zaripov bilan tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddatini tanlov natijasi e‘lon qilingunga qadar uzaytirish taklif qilindi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jamiyat yagona aksiyadori **qaror qiladi:**

1. “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisi v.b. Zaripov To‘lqin Ergashevich bilan tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddati tanlov natijasi e‘lon qilingunga qadar uzaytirilsin.

2. Jamiyat nomidan boshqaruv raisi v.b. T. Zaripov bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga qo'shimcha kelishuvni imzolash vakolati yagona aksiyador – "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisiga berilsin.

3. "O'zkimyosanoat" AJ xodimlar bilan ishlash boshqarmasi (Aripov) T. Zaripov bilan mehnat shartnomasiga qo'shimcha kelishuvni o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirsin hamda tasdiqlash uchun kiritsin.

4. Jamiyatning ijroiya organi rahbarligiga tanlov o'tkazish tartibiga muvofiq jamiyat boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari lavozimiga o'rnatilgan tartibda tanlov e'lon qilinsin hamda tanlov natijasi bo'yicha nomzodlardan kelib tushgan takliflar kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqilib, 2023-yil 1-dekabr kuniga qadar yagona aksiyadorga kiritilishi ta'minlansin.

**Jamiyatning yagona aksiyadori
"O'zkimyosanoat" AJ nomidan
boshqaruv raisi v.b.**



T. Muxamedjanov